TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUV USTAXONALARIDA ISHLATILADIGAN ASBOB USKUNA LARNI QO'LLASH USLUBLARI

Abirqulova Nilufar Isomiddin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish, o'qitish va kasb-hunarga o'rgatish hamda texnologiya darslarida asbob uskuna va moslamalardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv ustaxonasi, maktab, kasb hunar, mehnat turlari, asboblar va uskunalar, moslamalar, aqilli va jismoniy kuch, o'quvchilar, xizmat ko'rsatish, mehnat faolligi, xatolik, texnik.

Bizlarga ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda ta'lim moddiy-texnik bazasini mustahkamlash barkamol avlod kadrlarini tayyorlashda eng asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish ushbu sohada eng dolzarb va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda uzluksiz ta'lim, jumladan o'rta ta'lim sifatini oshirish maqsadida qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Chunki ta'lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda, yetuk kadrlar bilan bir qatorda, ta'limga doir bir qator me'yoriy hujjatlar, o'quv uslubiy ta'minotning o'rni katta. Prezidentimiz tomonidan o'qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amalga joriy etish o'quvchilarning ongli ravishda kasb hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishda butunlay yangicha yondashish kabi dolzarb vazifalar aynan shu maqsaddan kelib chiqqan holda qo'yilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan umumta'lim maktablari

va kasb-hunar bilim yurtlarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida yoshlarga mehnat tarbiyasi va zamonaviy ta'lim berishni, hamma kasblarga yo'llash ishlarini yaxshilash, hayotiy zarur bo'ladigan ommaviy kasb-hunarlarni o'rgatish zarurligini ko'rsatib o'tilgan edi, bu maqsadda barcha chora va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ko'rsatmalariga amal qilgan holda umumta'lim maktablari va kasb-hunar bilim yurtlari uchun texnologiya ta'lim dasturini tuzishda dasturning mazmuniga hayotiy zarur bo'lgan mehnat turlari, texnik mehnat, qishloq xo'jalik mehnati, xizmat ko'rsatish mehnati va shu kabilarni kiritishga asosiy e'tibor berilmoqda. Biz bilamizki, o'quv ustaxonasida bajariladigan mehnat, o'smirlarni hayotiy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yo'sh avlodni maktabga kasb-hunar bilim yurtlarida ularni nazariy olgan bilimlarini hayotga samarali qo'llashlari uchun katta imkoniyat yaratiladi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning o'rgangan ko'nikma va malakalarining amalda ahamiyati katta bo'ladi.

Shunday qilib texnologiya fanining vazifasi hozirgi yoshlar psixologiyasi oldiga qo'yilgan masalalarning yechishiga olib keladi, ya'ni har tomonlama rivojlangan va tayyorlangan, hamma amaliy ishlarni qo'llay oladigan yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish va kasb-hunar o'rgatishdan iboratdir, professor A.S. Qosimov aytishicha "Insonni aqliy va jismoniy qobilyatini rivojlantirish va sog'ligini yaxshilash uchun bo'lgan hayotiy faollik formalarini aynan texnologiya darslari jarayonida o'quvchilar o'zlashtiradi" shundan kelib chiqadiki aynan mehnat orqali o'quvchilardagi ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va haqiqiy ijodiy mehnatni quvonchini sezishga olib keladi. Lekin faqat optimal sharoitlarni qo'llaganda insonni fiziologik funksiyalariga mehnat orqali ta'sir ko'rsatish mumkin, bu sharoitlarni qo'llash uchun ularning ma'nosini va vaqtini bilish zarur. Agar bu sharoitlar ilg'or texnika va ilmiy asoslangan mehnatni tashkil etish talablar asosida qo'llanilsa bunda o'quvchilar texnologiya darslarida bajarish uchun berilgan buyumlarni yasashni oson va qulay usullarini qo'llab tez bajaradi. Buning uchun esa yuqorida aytilganidek ko'p vaqt va mehnat talab

qilinmaydi. Ko’p hollarda materiallarga ishlov berishda turli xil moslamalardan foydalanishni ish jarayonida o’quvchilarga ijobiy yordam berishi mumkin. Ushbu maqolada biz texnologiya darslarida o’quvchilarga o’quv ustaxonalarida ishlatiladigan asbob uskuna va moslamalarda foydalanish usullarini ko’rib o’tamiz.

Amaliy ish bajarish jarayonida o’quvchilar randa bilan ishlayotganda noto’g’ri harakat vaqtida qo’llari toliqqanda yuqoridagi bajarish qoidasi ongda noto’g’ri shakllanadi va kelgusida shu xatolik hamma vaqt qaytarilaveradi. Buni bartaraf etish uchun o’quvchi katta aqilli va jismoniy kuch sarflashi kerak. Ikkinchi tomoni o’quvchi ongida shuni “Men bajara olmas ekanman” degan fikr paydo bo’ladi. U o’zini randalash operatsiyasidan olib qochadi. Xuddi shunday hollar arra, parma bilan ishlash vaqtida yoki bundan boshqa asboblar bilan ishlaganda uchraydi. Mana shu yuqorida aytilganlarning hammasi o’quvchilarning psixologik moslamalarga bo’lgan fikrlarini o’zlashtirishlariga katta yordam beradi. O’quv ustaxonsida qo’llaniladigan asbob uskuna va moslamalar bir qator belgilari bo’yicha tur-turiga ajratiladi. Vazifasi bo’yicha ya’ni unda bajariladigan operatsiyalar soniga qarab ular universal va maxsus asbob uskuna va moslamalarga bo’linishi mumkin. O’quv ustaxonalarida har bir asbob uskuna va moslamalar bilan ma’lum bir operatsiyalar bajariladi. Ayrim hollarda materiallarga ishlov berishni yengillashtirish va o’quvchilarga qulaylik yaratish maqsadida qo’shimcha moslamalar bajariladigan ishlarni samaradorligini oshiradi. Ana shu maqsadda yog’och materiallarga ishlov berib har xil buyumlar yasashda randalash jarayonidan foydalaniladi. Biz ana shu maqsadda randalash jarayonini bajarishni yengillashtirish maqsadida randalash moslamasini loyixalashtirishni ishlab chiqdik va moslamani 5-6-sinf o’quvchilariga eksperment tarzida ishlatib ko’rdik. Shunday qilib o’quv ustaxonalarida yog’och materiallariga ishlov berish samaradorligini oshirish nafaqat qo’llaniladigan asbob uskunalarga balkim zaruriyat tug’ulganda qo’shimcha moslamalar yaratib ulardan foydalanishga ham bog’liq ekan.

Albatta bunday moslamalar o’quvchilarni ishlashi uchun ham qulaylik yaratadi, kam mehnat sarfini talab qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, asbob va moslamalar ta’lim oluvchilarda bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, bilim darajasini oshiradi, o‘quv materiallarining o‘zaro uzviylikda bo‘lishini ta’minlaydi. Bizning fikrimizcha, o‘quv predmeti mazmunini tanlash va ma’lum tizimga keltirish jarayonini jamiyatning aniq soha mutaxasislariga qo‘ygan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy ishlab chiqarish va shu kabilarni tanlash, soha fani texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasining hozirgi zamondagi rivojlanganlik darajasi va istiqbolga mos keladigan axborotlarni tanlab olish, tanlab olingan ma’lumotlarga pedagogik ishlov berilib, o‘quv me’yoriy hujjatlarga kiritish, materialni bevosita ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, tahsil oluvchilar tomonidan o‘quv materiallarining mazmuni qanday o‘zlashtirilayotganligi va amaliyot talabining qanday qondirilayotganligini aniqlash, aniqlangan muammolarning yechimini topish va zarur yo‘nalishlarga ko‘ra takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan materialdan ko‘rinadiki, asbob, uskuna va moslamalarni o‘rganishda, ya’ni o‘zaro bog‘liqlikni ahamiyati juda katta ekan. Bu esa ta’lim berish sifatini oshirishda muhim omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pronin.l.A. “Yog’och o’ymakorligi va mozaykasi” 2001 yil; nashriyotchi: U-Faktoria; Seriya:DIY
2. Amaliy tavsiyalar. Duradgorlik ishlari. 208 bet, 2000; nashriyotlar AST,Hosil; Seriya: mening kasbim.
3. Petrov A.K. Yog’ochga ishlov berish texnologiyasi. M.,1974 271 p
4. Bartashevich A.a. Antonov V.P. “Mebel ishlab chiqarish texnologiyasi va yog’och o’ymakorligi” 2001 yil Nashriyotchi: Oliy maktab.
5. Bulanin.V.D. Mosik yog’ochdan ishlov berish” 2001; nashriyotchi: Olma-

Press;Seriya; Mahorat maktabi.

6. Jalilov N. THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF TECHNOLOGICAL SCIENCE CLASSES Journal of Applied Science and Social Science, 2025
7. Jalilov N. Texnologiya ta’limi fanini o’qitishda axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari “o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali 2024/4/23
8. Jalilov N. Texnologiya ta’limi ta’limida zamonaviy axborot texnologiya ta’limilardan foydalanish – ta’lim sifatini oshirish omili. – Rossiya: «образование и наука в xxi веке». Выпуск № 9 (часть 2) (апрель, 2023).
9. Jalilov N. Texnologiya ta’limi ta’limi fanini o’qitishda axborot kommunikasion texnologiya ta’limilardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari “o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali 2024/4/23